

DAVLAT MAFKURASI MOHIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Shakaraliyeva Dilafroz Shuxratjon qizi,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabasi,

e-mail: shakaraliyevadilafroz@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muratayev Serikbek Alpamisovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muayyan mafkuraning konstitutsiyada belgilab qo'yilishining salbiy va ijobiy tomonlari, tarixdan hozirga qadar saqlanib kelgan mafkuralar tahlili, mafkuraning jamiyat hayotidagi o'rni, mafkuraviy g'oyalar bo'yicha fuqarolarning fikrlari va ularning tahlil, uning turlari, mustahkam mafkurani paydo bo'lishiga sabablar, mafkura o'rnatilishi natijasida inson huquq va erkinlari kafolatlanishiga ta'siri qanday o'zgarishi, mafkuraviy g'oyalarning o'rnatilishi davlat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, mafkura tushunchasi alohida e'tirof etilgan.*

Kalit so'zlar: *mafkura, ekstremistik tasvurlar, siyosiy plyuralizm, dogmatizm, siyosiy institutlar, Konstitutsiya, Amir Temurning mafkuraviy g'oyalari, milliy mafkura, ijtimoiy adolat prinsipi.*

Annotation: *This article discusses the negative and positive aspects of enshrining a particular ideology in the constitution, an analysis of ideologies that have survived from history to the present, the role of ideology in social life, citizens' opinions on ideological ideas and their analysis, its types, the reasons for the emergence of a strong ideology, how the establishment of an ideology affects the guarantee of human rights and freedoms, the importance of the establishment of ideological ideas for the state, and the concept of ideology is also specifically recognized.*

Keywords: *ideology, extremist ideas, political pluralism, dogmatism, political institutions, Constitution, ideological ideas of Amir Temur, national ideology, principle of social justice.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются негативные и позитивные аспекты закрепления той или иной идеологии в конституции, проводится анализ идеологий, сохранившихся с исторических времен до наших дней, рассматривается роль идеологии в общественной жизни, мнения граждан об идеологических идеях и их анализ, типы идеологий, причины возникновения сильной идеологии, влияние формирования идеологии на гарантирование прав и свобод человека, важность формирования идеологических идей для государств, а также конкретно рассматривается само понятие идеологии.*

Ключевые слова: *идеология, экстремистские идеи, политический плюрализм, догматизм, политические институты, Конституция, идеологические идеи Амира Тимура, национальная идеология, принцип социальной справедливости.*

KIRISH. Mafkura – bu muayyan xalqning, millatning yoki davlatning manfaatlari, qadriyatlari, intilishlari va maqsadlarini aks ettiruvchi umumiy g‘oyalar tizimidir. U jamiyatni bir maqsadga erishishga yo‘naltiradi va o‘sha jamiyat a‘zolarini qarashlarini umumiy, yagona ekanligini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, o‘zida xalq manfaatini aks ettirgan g‘oyalar tizimi ekan, u bir jamiyatning turli yo‘nalishlariga ya‘ni, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy sohalariga muhim kuch bo‘lib turuvchi omil hisoblanadi. Masalan, “inson davlatga emas, davlat organlari xalqning manfaatini ko‘zlab, ularga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya mafkuraning siyosiy ko‘rinishi bilan bog‘liq. Shuningdek, umumiy mafkura tushunchasining siyosiy, milliy va diniy ko‘rinishlari mavjud. Masalan, yuqorida keltirilgan qarashlar va fikrlar davlat boshqaruvi, davlatning o‘z faoliyatini siyosatiga mos ravishda olib borishi bog‘liq. Uning jamiyat ongida aks etishi va shaxs tomonidan anglanib, uni amalga oshirish imkoni ongda paydo bo‘lishi, bir butun tizim holiga keltirilishi esa milliy mafkuraning xususiyatlarini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyat hayotida ruhiy, ma‘naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, mafkura jamiyat hayotida inson ongida shakllansagina uning amaliy hatti-harakatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, muayyan diniy aqidalar va ta‘limotlar, axloqiy prinsiplarga asoslangan, inson dunyoqarashini diniy jihatdan shakllantiruvchi, ularni birgalikda harakat qilishga intiluvchi g‘oyalar tizimi. U jamiyatda ma‘naviyatni yuksaltirishi mumkin, biroq inson ongini ekstremistik tasavvurlarni paydo qilib, jamiyat uchun xavf tug‘dirishi ham mumkin. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning asosiy mazmunida ham bunday fikrlar va g‘oyalar yoritilishu butun millat uchun xavfli hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”²⁰⁵ degan ezgu g‘oyaning bugungi taraqqiyot davrining ustuvor shiori ekanini alohida ta‘kidlab, ushbu g‘oyani hayotga to‘liq tadbiiq qilinishida xalq birligi va umumiy manfaat yo‘lida ishonch bilan fidoiylilik ko‘rsata olishlari uchun barcha imkoniyatlarni va sharoitlarni yaratishimiz zarur ekanligini uqtiradi. Ya‘ni, xalqning ayrim siyosiy bosimlar sababli uning o‘tmishdagi qoloqligini tark etib, uni ma‘naviy jihatdan tiklanishi, ongi va madaniyatini yuksaltirish, shunday milliy mafkuraning yaratilishi natijasida millat rivoji yanada oshadi.

O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunida yagona mafkura tushunchasi o‘rnatilishi mumkin emas deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiya siyosiy plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) tamoyiliga asoslanadi. Ya‘ni jamiyat hayoti siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning

²⁰⁵ “Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” kitobi Shavkat Mirziyoyev Miramonovich 24.07.2020

xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas (12-modda). Davlat bitta mafkurani to‘g‘ri deb majburlamaydi, insonlar erkin so‘zlash va fikrlash huquqiga ega, jamiyatda turli qarashlar bo‘lishi mumkin. Unga ko‘ra, bir davlatni har bir sohada rivojlanishida demokratik tamoyillarni o‘rni katta. Masalan, inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e‘tirof etilishi va kafolatlanishi, davlat boshqaruvi ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili asosida amalga oshirilishi, hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi hamda ijtimoiy hayotda fikrlar xilma-xilligi, ijtimoiy-siyosiy birlashmalarning ko‘pligi. Bu orqali davlat jamiyat barqarorligiga va ijtimoiy adolat prinsipiga erishishi mumkin, biroq bu bir millatni milliy va tarixiy g‘ururi, g‘oyasi hamda qadriyatlarini saqlab qolinishiga to‘sqinlik qiladi. Masalani boshqa tomondan tahlil qilinsa, hozirgi globallashuv jarayonida jamiyat zamonaviy qarashlar shuningdek, har jihatdan yangilanishga intilmoqda. Agar, xalq asrlar davomida shakllanib kelgan o‘z qadriyati va axloq prinsiplarini unutib, uni boshqa bir madaniyatga almashtirsa, millat tarixi yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Bunday holatda davlat va jamiyat qanday yo‘l tutishi kerak?

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Konstitutsiyada muayyan bir mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilsa, bu davlatning boshqaruv tizimi va boshqa barcha sohalarida shu mafkura ustuvor bo‘lishiga olib keladi. Buning natijasida madaniyat, ommaviy axborot vositalari, siyosiy faoliyatlar hatto iqtisodiyot ham shu yondashuv asosida shakllanadi. Shunda qabul qilingan qonunlar shu mafkurani himoya qilish hamda takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Bu ayrim hollarda fikr va so‘z erkinligi cheklanishiga va boshqa demokratik tamoyillar buzilishiga olib keladi.

Agar Konstitutsiyada hech bir mafkura davlat mafkurasi sifatida belgilanmasa, jamiyatda siyosiy plyuralizmni ta‘minlanadi. Sundagina fuqarolar erkin fikr bildirish, tanqidiy qarashlarni shakllantirish huquqiga ega bo‘ladi. Bunday holatda, demokratik tamoyillar shakllanib, ularni yanada takomillashtirishga harakat kuchayadi.

Tarixga nazar tashlasak, bizning jahonga nomi ketgan yuzlab bobokalonlarimiz, ilm-fan olamida iz qoldirgan mutafakkirlarimiz o‘sha davrni o‘zidayoq o‘z mafkurasini yaratib ketgan. O‘tgan asrlarda ular jamiyatni umumiy g‘oya atrofida ya‘ni hammani ilm-fanga yo‘naltirishni maqsad qilgan va shu g‘oya orqali jamiyatni birlashtirishga harakat qilgan. Insonlar xulq-atvorini va ijtimoiy jarayondagi muammolarni ilm orqali hal qilishgan. Shuning uchun ham mafkura jamiyatning turli sohalarini (axloqiy, falsafiy, ijtimoiy, siyosiy) qamrab oladi. Masalan, Cho‘lpon²⁰⁶ ijodida jadidchilik g‘oyalarining poetik ifodasi va mafkuraviy asoslarini kompleks tahlil qiluvchi yetarli ilmiy ishlar mavjud emas. Chunki, o‘sha davrni o‘zidayoq ilmiy jihatdan o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilgani uchun bizgacha yetib

²⁰⁶ Cho‘lpon (asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov) – davlat siyosatini tanqidiy fikrlab, o‘z g‘oyalarini taqdim qilgani, jadidchilik harakati bilan shug‘ullangani uchun 1938-yil 4-oktabrda qatletilgan.

kelmagan. Bundan tashqari, o‘z davrida butun dunyoni larzaga keltirgan, buyuk sarkarda Amir Temur ham o‘zining saltanatida olib borgan siyosati va prinsiplari orqali o‘zining mafkurasini, ya’ni milliy g‘oyalarini, qarashlari va qadriyatlarini keying asrlarda ham saqlab qolishga harakat qilgan va buni uddalagan. Ammo ularning umumiy kompozitsiyasi yagona ruhda birlashtirilgan. Bu, shubhasiz, Temurning siyosiy mafkurasida nasl, birlik va abadiylik g‘oyasi kuchli bo‘lganidan dalolat beradi. Barchasi chuqur ramziy, siyosiy va mafkuraviy ma‘noga ega bo‘lib, Temur davridagi davlatning madaniy-siyosiy konsepsiyasini aks ettiradi.

Kuchli va mustahkam mafkura uning xalqi ishonch bildirishi, yagona g‘oya uchun har qanday ishga qodirligini ko‘rsatishi orqali vujudga keladi. Bunga bir misol qilib bir necha asrlar davomida mafkuraviy g‘oyalarini saqlab kelayotgan Turk xalqi hisoblana di. Uning shu darajaga yetganligiga sabab xalqining ongiga davlat muqaddasligi, davlat manfaatlari jamiyat manfaatlardan ustun bo‘lishi singdiriladi, shuningdek, sa‘nat va kino sanoati orqali doimo turklarning milliy qahramonlari, tarixiy muvaffaqiyatlari targ‘ib qilinadi hamda tashqi tahdidlar paydo bo‘lganida har doim ular ichki jipslashuv ya’ni yagona millat bo‘lib birlasha oladi. Eron siyosatida ham o‘rnatilgan qat’iy diniy qoidalar va g‘oyalar mustahkam mafkuraviy tizim o‘rnatilganidan dalolat beradi.

Mafkurani davlatning rasmiy strategiya tizimiga aylantirish ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallaydi. Bunday holatda esa jamiyatni birlashtiruvchi, ham ba’zi qoidalarni rad etuvchi belgilari mavjud. Ijobiy tomoni birinchidan: jamiyatni bir muayyan maqsad yo‘lida birlashtiradi, ikkinchidan: u davlatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish tizimini (ta’lim, iqtisodiyot, sog‘liq) belgilab beradi, uchunchidan: ma’lum bir qadriyatlarni (vatanparvarlik, sadoqat, adolat, mehnatsevarlik) targ‘ib qiladi. Salbiy tomondan esa mafkura davlat darajasiga ko‘tarilganida turli xil fikrlar, g‘oyalar erkinligi, tanqidiy fikrlash cheklanishi (dogmatizm) holatlari kelib chiqadi, inson huquq va erkinliklarini cheklash uchun asosga aylanadi, davlat o‘z prinsiplariga mos kelmaydigan har qanday tizimni, hatto insonlarni qoralaydi hamda ijtimoiy hayotning yangi bosqichga o‘tishi o‘rnatilgan mafkuraviy g‘oyalarga zid bo‘lib qoladi va davlatda ilm-fan, madaniyat, ta’lim orqada qolishiga sabab bo‘ladi.

O‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari tahlili

So‘rovnomalar savollari:

Sizningcha, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga ko‘ra, davlat biron bir maxsus mafkurani majburiy qilib belgilashi mumkinmi?

"Fikrlar, qarashlar va e’tiqodlar xilma-xilligi" deganda nimani tushunasiz?

Konstitutsiyamizdagi "Inson qadri", "Adolat" va "Qonun ustuvorligi" kabi tushunchalarni davlatning asosiy g‘oyaviy poydevori deb hisoblaysizmi?

Davlat organlari xodimlarining siyosiy qarashlari ularning ish faoliyatiga ta’sir qilishi kerakmi?

Mamlakatimizning asosiy qonuni bu masalada qat’iy demokratik tamoyillarga tayanadi. Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilanganidek, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi fuqarolar tomonidan ham asosiy huquqiy mezon sifatida e’tirof etilmoqda. Fuqarolarning javoblarida aks etgan qarashlar tahlil qilinganda, jamiyatning katta qismi hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligini to‘g‘ri anglaydi, bu esa huquqiy davlat qurish yo‘lidagi muhim omildir. Shuningdek, so‘rovnomada ko‘tarilgan "Inson qadri", "Adolat" va "Qonun ustuvorligi" kabi tushunchalar respondentlar tomonidan davlatning g‘oyaviy poydevori deb hisoblanishi amaldagi Konstitutsiyamizning 1- va 13-moddalaridagi insonparvarlik prinsiplari bilan to‘la uyg‘unlikni tashkil etadi. Huquqiy tahlil natijasida ayon bo‘ladiki, davlat mafkurasi yo‘qligi jamiyatda turg‘unlikka emas, balki fikrlar plyuralizmi orqali taraqqiyotga xizmat qiladi hamda fuqarolarning vijdon va e’tiqod erkinligini kafolatlaydi. Binobarin, respondentlarning siyosiy va huquqiy qarashlari amaldagi konstitutsiyaviy normalarga asosan shakllangan bo‘lib, bu davlatning dunyoviy va huquqiy tabiatini saqlab qolishda jamiyatning qo‘llab-quvvatlovi mavjudligini tasdiqlaydi. Shu o‘rinda, O‘zbekistonda konstitutsiyaviy asoslar davlatning biron bir mafkura ortidan ergashishini emas, balki qonun va inson huquqlari atrofida birlashishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu fuqarolarning siyosiy irodasida ham o‘z ifodasini topmoqda.

XULOSA.

Davlat milliy, tarixiy va ma’naviy g‘oyalarini saqlab qolishi uchun unga asoslangan davlat mafkurasini o‘rnatishi kerak. Bundan tashqari, mafkura mavjud bo‘lsa, mamlakatdagi ommaviy axborot vositalari tizimi, siyosiy partiya faoliyati to‘sqinlikka uchrashi mumkin.

Ba’zi holatlarda, yagona mafkura o‘rnatilmagan davlatlarda mafkuraviy bosim uchrashi mumkin, masalan, yoshlar ongiga ta’sir qilish maqsadida ya’ni ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘z ona vatanini ko‘z qorachig‘idek asrash, uning nomini dunyoga tarannum qilish, vatanparvar fuqarolarni voyaga yetkazishni maqsad qilgan holda foydalanilishi mumkin.

Mafkuraviy qarashlarning Konstitutsiyada belgilanishi yoki taqiqlanishi albatta uning moddalari va u asosida qabul qilinadigan qonunlarga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki Konstitutsiya davlatning oliy huquqiy qonuni bo‘lib, unda jamiyatning asosiy maqsadlari, qadriyatlari va manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari ifodalanadi. Shu sababli unda mafkuraga oid normalarning mavjudligi keyinchalik qabul qilinadigan barcha qonunlar mohiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun Konstitutsiyada mafkuraviy g‘oyalarning belgilanishi yoki belgilanmasligi har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, davlatning kuchi yagona majburiy mafkurada emas, balki qonunlarning barcha uchun tengligida va milliy qadriyatlarning fuqarolar qalbida ixtiyoriy

ravishda o‘rin olishidadir. Konstitutsiyamizda mafkuraviy tazyiqning taqiqlanishi — jamiyatning intellektual erkinligini ta‘minlasa, milliy g‘oyaning yuksaltirilishi — davlatning dunyo xaritasidagi o‘ziga xosligini saqlab qoladi. Shuningdek, o‘zbek xalqi yer kurrasi bo‘ylab ilm-fan olamida yagona kuch deb tan olinishini mafkuraviy g‘oya jihatidan emas, balki reallik asosida bu maqsadni amalga oshirish har bir o‘zbek bolasini ajralmas burchidir degan tuyg‘u asosida shakllantirish darkor.

Demokratik plyuralizm va milliy g‘urur uyg‘unligi — barqaror taraqqiyotimizning yagona yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adizov, A. (2026). GLOBAL MAFKURAVIY KONFRONTATSIYA VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI ASOSIY SOHALARI., (стр. 5-6). Toshkent.
2. Alisher, S. (23 Oktabr 2025 г.). Madaniyat tarixining asosiy omillari. IQRO JURNALI, 701-713.
3. Erkayev, A. (2025). MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH., (стр. 21-25). Toshkent.
4. Mirziyoyev, S. (19 yanvar 2021 г.). Milliy tarixni milliy g'oya bilan yaratish kerak. Toshkent, O'zbekiston.
5. O.Amanova, O. N. (2019). 8-sinf O'zbekiston davlati va huquqi asoslari. Toshkent: "Huquq va jamiyat" nashriyoti.
6. Olim, S. (25 Iyul 2023 г.). Konstitutsiya, milliy mafkura va ma'naviyat: qat'iy pozitsiyalar zarurati. Получено из <https://yuz.uz/uz/news/konstitutsiya-milliymafkura-va-manaviyat-qat'iy-pozitsiyalarzarurati>
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023)., (стр. 3-115). toshkent.
8. Terrorizm, seperatizm, ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiya. (29 Mart 2003 г.). Получено из <https://lex.uz/uz/docs/-2066680>